XALQ DEPUTATLARI SHOVOT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 11-mart VII-22-30-12-177-K/26 Shovot tumani

2026-yilda Shovot tumani bo‘yicha “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ–1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–387-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Shovot tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ–1105-sonli Qonunining 9-ilovasida 2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalari tasdiqlanganligi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi 387-sonli qarori 2-bandi “V”-kichik bandida xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini

20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi hamda mazkur yig‘imlardan tushgan tushumlar to‘liq miqdorda tuman (shahar)lar budjetlariga yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yuqoridagilardan kelib chiqib 2026-yil uchun Shovot tumani hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlariga kiritiladigan o‘zgarishlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shovot tumani hokimining birinchi o‘rinbosari, iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Saidov va tuman soliq inspeksiyasi I.Sultanov bilan birgalikda mazkur qarorning o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Tuman hokimining axborot xizmati, ma’naviyat va davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi (S.Yo‘ldoshev), “Shovot istiqboli” gazetasi (M.Abdalova) hamda tuman hokimligi bosh yuriskonsul’ti (Z.Raximov) bilan hamkorlikda;

mazkur qarorni tuman hokimligining https://gov.uz/oz/shovot rasmiy veb-saytiga joylashtirsin hamda “Shovot istiqboli” gazetasida rasmiy e’lon qilsinlar.

5. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Shovot tumani Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi G.Dosova zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **BABAJANOV JAMOLBEK JUMABAYEVICH**

Xalq deputatlari Shovot tumani
Kengashining
2026-yil 11-martdagi
VII-22-30-12-177-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Shovot tumani hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (*bundan pivo mustasno*) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (*bundan pivo mustasno*) realizatsiya qilish uchun yig‘im stavkalari

№	Yig‘im turi	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)		
		Bazaviy stavka *(O‘RQ-1105 25.12.2025 y. 9-ilova)*	Qo‘llanilgan koeffitsiyent *(1,2 gacha)*	2026-yil uchun yig‘im stavkasi
1	Alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	1,2	360 000
2	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	150 000	1,2	180 000